

UDK: 811.512.133'373.7:398.9 (=512.133)

**O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA MILLIY QADRIYATLAR VA
URF-ODATLARINING AKS ETISHI****BuxDPI Nurova Yulduz Ubaydullayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

yulduznur@gmail.com**BuxDPI Ziyoyeva Marjona Anvar qizi**

O'zbek tili va dabiyoti magistranti.

marjonziyoyeva555@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15225888>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq paremalarida uchraydigan milliy qadriyat va urf-odatlarini etnolingvistik tomonidan tahlili berilgan. Bunda xalq va tilning uzviy bog'liqligi haqida so'z boradi. Paremalar tizimidagi maqol, matallarning etnolingvistikasi haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, keltirilgan fikrlar xalq o'g'zaki ijodiga tegishli bo'lgan misollar orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, etnos, maqol, matal, etnik madaniyat, parema, paremiologiya.

**REFLECTION OF NATIONAL VALUES AND TRADITIONS IN UZBEKISTAN
PEOPLE'S PAREMAS**

Abstract. This article provides an ethnolinguistic analysis of national values and traditions found in Uzbek folk proverbs. It discusses the intrinsic connection between language and people. The ethnolinguistic aspects of proverbs and saying within the paremia system are examined. Additionally, the presented ideas are illustrated through examples from folk oral literature.

Keys words: etnolinguistics, ethnos, proverb, saying, ethnic culture, paremia, paremiology.

**ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ В ПАРЕМАХ
НАРОДА УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация. В статье представлен этнолингвистический анализ национальных ценностей и традиций, отраженных в узбекских народных сказках. Это говорит о неразрывной связи человека и языка. Обсуждается этнолингвистика пословиц и поговорок в системе притч. Кроме того, представленные идеи поясняются примерами, связанными с устным народным творчеством.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнос, пословица, идиома, этническая культура, паремиология.

Kirish (Introduction)

Parema- xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, ixcham va soda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan. Muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol va matallar paremalar tizimini tashkil etadi[10]. Bibish Jo'rayeva o'zining "O'zbek xalq paremalarining sinonimlik lug'ati" kitobida paremalar haqida quyidagi fikrlar aytilgan: "Biz paremalar nomi ostida maqol, matal, maqol-matal tipdagi paremalar va aforizmlarni birlashtirishni lozim deb topdik. Bu birliklarning barchasi pand-nasihati ifodalashga xoslanganligi bois ularni paremalar deb nomlash maqsadga muvofiq. Ammo ayni paytda har bitta birlikning o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Tilshunoslikda maqol va matallarni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko'ra farq qiladi. Matal nutqda axborot berish vositasi bo'lsa, maqol shu axborotni jonli timsollarda yetkazish, uni dallilash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi"[5]. Paremalarda xalqning milliyliigi va uning madaniyati, urf-odat va qadryatlari, diniy e'tiqodlari namoyon bo'ladi.

Etnolingvistika- tilshunoslikning til va il egasi bo'lgan xalq orasidagi bog'liqlikni hamda munosabatlarni, til rivoji, vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi sohasi[7]. A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida etnolingvistika haqida shunday ta'rif beradi: "Etnolingvistika- makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'limi..."[1]. Etnolingvistika tilning etnik jihati va etnosning lingvistik xususiyatlarini ifodalash, ichki va millatlararo aloqalardagi etnolingvistik jarayonlar, etnik jarayonlarning shakllanishi va faoliyatida tilning o'rnini, til va an'anaviy madaniyat, tafakkurning etnik o'ziga xosligi, dunyo tillarining etnolingvistik tasnifini ifodalaydi.

Etnolingvistika, ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillardagi etnik xususiyatlar bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda qo'l keladi.[8] U, asosan, ikki yo'nalishda ish ko'radi:

- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o'rganish;
- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o'rganish.

Bunda birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin. Til jamiyat madaniyati va tarixining muhim qismi bo'lib, u xalqning qadryatlarini va turmush-tarzinini aks ettiradi. Etnolingvistika esa til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib paremalar tizimidagi til birliklarini tahlil qiladi. Til va etnik xususiyat munosabati, ularning bir-biriga ta'siri ikki yo'sinda kechadigan jarayon:

- etnik omil [urf-odat, an'ana, falsafiy, diniy qarashlar va h.k ning] til rivojiga ta'siri;
- lisoniy omilning etnos [va etnik xususiyat] rivojiga ta'siri [7].

N.I.Tolstoy etnolingvistika haqida shunday deydi.. “keng ma’nodan etnolingvistika dialektologiya, folklor tili va tarixining tarixiy dialektologiya va xalqning madaniy-etnik tarixi bilan bog’liq qismini o’z ichiga oladi” fikrlari bor (Tolstoy 1982, 398). Etnolingvistika maqol va matallarni tahlil qilish orqali turli xalqlarning tili va madaniyati o’rtasidagi bog’liqlikni, ijtimoiy hayotini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tilshunoslikda til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalariga dastlab V. fon Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi Yevropa va rus tilshunoslari e’tibor qaratgan. Dunyo tilshunosligida matnni antropotsentrik paradigma asosida o’rganish etnolingvistika, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatikaga oid tadqiqotlarda ko’zga tashlanadi.

Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev, J.Lakoff, A.Vejbiskaya, E.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, M.Dridze, K.F.Sedov, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, E.A.Begmatov, Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, I.Azimova kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi antroposentrik tamoyillar asosida tadqiq etilgan[6]. Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab...” nomli maqolasida etnolingvistika, lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyatini va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Til sohasida omonimiyani o’rganish borasida bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo’lib, odatda, omonimiyat matnda aniqlanadi (B.N. Golovin, A.M.Babkin, E.M.Galkina-Fedoruk, L.A.Bulaxovskiy, R.A.Budagov, S.Axmanova, N.M.Shanskiy kabi), ammo ba’zi hollarda bu tushunishni qiyinlashtiradi. L.V.Malaxovskiy “tabiiy tillarda omonimlarning mavjudligi zarur va tabiiy” deb hisoblaydi. B.A.Plotnikov nisbatan barqaror va tilga mansub noaniqlik toifasiga omonimiyani kiritadi[2]. Maqol va matallarni qiyosiy-tipologik xususiyatlariga oid muammolar I.Begmurodov, R.A.Latipova, I.K.Mirzaev, Ye.V.Ivanova, B.T.Kasharokov, V.V.Pavlov, Z.A.Yusupova, Ye.A.Osheva, L.A.Babitova, O.Sh.Igbolov, M.Temirova, R.U.Majidova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu kabi ilmiy ishlar, maqol va matallar tadqiqotning nazariy jihatdan mustahkam asosga ega ekanligini ko’rsatadi. O’zbek tilshunoslari X.Abdurahmonov, G.N.Sindibaeva, N.B.Saparova, P.U.Bakirov, M.Djusupov, K.E.Alibekova, Sh.Majitaeva, B.Jo’raeva, D.S.Turdalievlar maqol va matallarining qiyosiy, g’oyaviy-badiiy, leksik, leksik-stilistik, grammatik tahliliga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan[4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Paremalarning etnolingvistik xususiyatlari:

1. Maqollar va matallarda xalqning qadriyatlari, urf- odatlari, diniy e'tiqodlari aks etadi.

Masalan.. *“Amri padar- arshdan a'lo”*

Arsh- diniy aqidalarga ko'ra, Allohning taxti, Falakning eng yuqori qismidagi saroy.

Maqolda otaning so'zi, amri, buyrug'i ana shu arshdan ham ulug' deb ko'rsatiladi va farzandlarga otaning aytganini bajo keltirish lozimligi uqtiriladi.

“Qizniki qiyin bilan bitar, o'g'ilniki o'yin bilan bitar.”

Ushbu maqolda xalqimiz turmushida hukm surib kelayotgan urf-odatlar, rasm-rusumlar, tartib-qoidalar binoan, qiz uzatish- o'g'il uylantirishga nisbatan ancha mushkul va ko'p mablag' talab qiladi.

“Qalin bergandan keyin o'lik kuyov ham tobutda yotmas.”

Bu maqolning kelib chiqishi qadimiy urf-odatlardan biri bo'lgan *“Qalliq o'ynash”* deb ataluvchi urf-odatga borib taqaladi. Mazkur maqolni aytarkanlar, ota-onalar, oila a'zolari yoxud chet kishilar kuyovga qarata.. *“Qalinku bir amallab to'lab bo'lindi, endi bor qallig'ingni oldiga”* demoqchi bo'lganlar [9].

2. Turli tillardagi maqollarni taqqoslash orqali xalqlarning dunyoqarashi farqlari o'rganiladi. Masalan, *“Ko'pdan qut ketmas.”*

Ushbu maqol o'zbek tilida jamoatchilik qadryati, birdamlikni ulug'lash kuzatiladi, ingliz tilidagi *“Too my cooks spoil the broth”* esa individualizmga urg'u beradi. Yoki o'zbek tilidagi *“Ko'pning rizqi ko'p”* va ingliz tilidagi *“Unity is strength”* maqollari bir xil g'oyani, ya'ni birdamlikning ahamiyatini ifoda etgan. Bundan tashqari, o'zbek maqollarida *“non”* obrazi hallolik va baraka timsoli sifatida ko'p uchraydi, ammo ingliz tilida esa *“bread”* ko'proq kundalik ehtiyojni ifodalaydi [3].

3. Paremalarda xalq tajribasi, avlod-ajdodlar saboqlari saqlanib qolgan. Masalan, *“Bir yigitga qirq hunar oz.”* Bir so'z bilan aytganda hunar o'rganish- qon-qonimizga singib ketgan qadriyat. Hunar-tuganmas xazina. Hunarli inson hech qachon xor bo'lmaydi. Bu kabi maqollarda xalqning, ota-bobolarimizning tajribalari yaqqol namoyon bo'ladi [9].

4. Har bir tilga xos obrazlar paremalarda yaqqol aks etadi. Masalan, bizning faqatgina o'zbek tilimizga xos bo'lgan *“qaynona”* va *“kelin”* obrazlari maqollarda ko'plab uchraydi [3]. *“Kelin bo'ldim qaynonamga yoqmadim, qaynona bo'ldim kelinimga yoqmadim”* yoki *“Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh otsang odh olasan”* kabi maqollarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu maqolda quda-andachilik, qaynona kelin munosabatlari yoritilgan.

5. Paremalarda diniy va e'tiqodiy omillar, ya'ni bunda etnolingvistik jihatdan tahlil qilganda ko'plab paremalar islomiy qadriyatlarga asoslanganligini ko'rish mumkin. Masalan, *“Zakotli mol o'tda kuymas, suvda cho'kmas.”* Zakot- musulmonlardan har yili olinadigan diniy soliq bo'lib, islom shariatiga ko'ra, uni to'lash farz, ya'ni majburiyatdir.

Islomiy aqidalarga binoan oʻz ehtiyojlaridan tashqari bir yilgacha sarf boʻlmay kelgan 83 gramm oltin yoki 200gramm kumush miqdoridagi pulga yoki shu miqdoridagi savdo puliga ega boʻlgan kishi badavlatdir. Bu kishi esa ortiqcha boyligini qirqadan bir qismini zakot niyatida berishi bu farz hisoblangan [9].

“*Kamtar kamolga yetar, besabr oyoqdan yitar.*” Ushbu maqol islomiy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Insonlarni har qanday qiyinchilik ortida huzur-halovat borligiga, ularning barchasini sabr bilan yengib oʻtishga chorlaydi. Shoshqaloqlik esa insonni muvaffaqiyatdan mahrum etadi. Bundan tashqari, kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.

Islomda kamtarlik buyuk fazilat sanalib, Alloh taqvorod va kamtar kishilarni sevishini bildiradi [10].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, paremalarning etnolingvistik tahlili ularning linivistik, balki madaniy, ijtimoiy va tarixiy jihatlarini ham ochib beradi. Oʻzbek paremalarida xalqning turmush-tarzi, eʼtiqod va urf-odatlar aks etganligi sababli, ularni oʻrganish oʻzbek malqining maʼnaviy merosini chuqurroq bilishga chorlaydi.

REFERENCES

1. A.Хожиев Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.178.
2. Артеменко М., Фольклорное текстообразование и этнический менталитет //Традиционная культура. Научный альманах. 2001. №2 (4). С. 11-17.
3. Fayziyeva, A.X. (2024). Maqollarni oʻrganish bilan lingvokulturologik yondashuv. Worldly knowledge, 9-son, 626-627-628. www.worldlyjournals.com.
4. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М., 1985. – 452 с
5. Joʻrayeva.B.M. Oʻzbek xalq paremlarning sinonimlik lugʻati.- Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023. -B.7.
6. Baxshilloeyvna, S. M., & Mirzoyevna, I. M. (2023). MAKTABGACHA TAʼLIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TAʼLIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 163-163.
7. Sharipova, M. B., & Salimova, K. R. Q. (2021). “ALPOMISH” DOSTONIDA “KAMPIR OʻLDI” MAROSIMI TASVIRI. *Scientific progress*, 2(7), 1109-1113.
8. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.

9. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasini ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
10. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic "Alpomish"). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
12. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА INNOVATION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
13. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
14. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.